

OCHIQ BURCHAKLI GLAUCOMA KASALLIGIDA ULTRATOVUSHLI BIOMIKROSKOPIYA BILAN ERTA DIAGNOSTIKA QILISH

Fayzullayev Fazliddin Saidovich

Buxoro davlat tibbiyot universiteti 3-bosqich magistranti

Odilova G.R.

Ilmiy rahbar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11118629>

Dolzarbligi. Hozirgi vaqtda yuqori texnologiyali zamonaviy tekshirish usullaridan biri hisoblangan ultratovushli biomikroskopiya rangdor pardani tashxislashda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Ultratovushli biomikroskopiya turli xil ko'z kasalliklarni biomikroskopiya klinik amaliyotda ko'z oldingi qismlarini keng qamrovli birlamchi rangdor pardani tekshirish usuli hisoblanadi. Nafaqat oldingi, balki ko'zning orqa kamerasing holatini baholash orqali ultratovushli biomikroskopiya glaukomaning barcha turlarida kasallikning patogenetik va morfologik rivojlanishini kuzatish va boshqa kasalliklar bilan differentsial tashxisoti, davolash samaradorligini baholashda asosiy tekshrangdor pardah usuli bo'lib kelmoqda.

Tadqiqot maqsadi. Birlamchi ochiq burchakli glaukoma ultratovushli biomikroskopiya yordamida ko'zning oldingi qismlari holatini baholash.

Glaukoma zamonaviy oftalmologiyaning muhim tibbiy va ijtimoiy muammolaridan biridir. Ushbu kasallikning tashxislash va davolashdagi ko'plab yutuqlarga qaramay, u dunyo bo'ylab bemorlarning ko'rish qobiliyatini yo'qotishining asosiy sabablaridan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi kunga kelib, dunyoda glaukoma bilan og'rigan bemorlarning umumiy soni taxminan 105 million kishini tashkil etgan va JSSTning taxminlariga ko'ra, 2030 yilga kelib u ikki baravar ko'payishi mumkin. Kasallikning aholi o'rtasida tarqalishi bemorlarning yosh ko'rsatkichi ortishi bilan ko'payib boradi: 40-49 yoshdagi bemorlarning 0,1 foizida, 60 yoshdan 69 yoshgacha - 2,8 foizda, 80 yoshdan oshganlarda - 14,3 foiz hollarda glaukoma uchraydi [2,3].

Glaukoma 40 yoshdan oshgan aholi qatlami o'rtasida ko'z kasalliklari sababli mehnatga layoqatsizlikning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. JSST ma'lumotlariga ko'ra butun dunyoda glaukomaning turli shakllari natijasida ko'r bemorlar soni 5.2 mln.ni tashkil qiladi. Ko'zi ojiz bemorlar umumiy sonining 15% dan ko'prog'i glaukoma tufayli ko'rishni yo'qotgan va bu ko'rsatkich bo'yicha kataraktadan keyin, ikkinchi o'rinni egallaydi.

Glaukomaning turli xil shakllari orasida 72-80%ni birlamchi ochiq burchakli glaukoma (BOBG) tashkil etadi [1,2].

O'zbekistonda 40 yoshdan oshgan aholining glaukoma bilan kasallanish ko'rsatkichi 1,5 - 2,5% ni tashkil etadi. Barcha glaukomali bemorlarning 79,9% BOBG, 20,1%da YoBG uchraydi. Yosh ortishi bilan BOBG ning tarqalishi mutanosib ravishda ortib boradi. 40 - 45 yoshli aholining 0,1%, 50 - 60 yoshda 1,5 - 2%, 75 va undan katta yoshdagilarda esa taxminan 10%ni tashkil etadi [1].

Hozirgi kunga qadar birlamchi ochiq burchakli glaukoma tashxislash tamoyillari va glaukomali bemorlarni olib borish taktikasini tanlash sub'ektiv baholash usullarining natijalariga (ko'z ichi bosimini o'lchash, ko'ruv nervi halqasi holatini va ko'rish maydonini baholash) asoslangan. Perimetrik testlar ko'rish[4].

Birlamchi ochiq burchakli glaukoma bilan og'riqan bemorlarning kasallik xususiyatlarini hisobga olgan holda (ko'pchilik bemorlarning mehnatga layoqatli yoshda ekanligi), ularni reabilitatsiya qilishning eng muhim vazifalari bemorlarni jamoaga qaytarish, ish faoliyatini tiklashga qaratilgan bo'lishi kerak. Glaukoma natijasida kelib chiqadigan nogironlik muammolari, glaukoma bilan kasallangan bemorlarning o'z-o'zini parvarish qilish, turli darajadagi ko'rish qobiliyatiga ega bemorlarning jamiyatda tutadigan o'rni va birlamchi ochiq burchakli glaukoma bosqichini baholash mezonlari bugungi kunda bir qator mualliflar tomonidan o'rganilgan [5].

Xulosa. Bugungi kunda zamonaviy tibbiyot muammolaridan biri bo'lgan ochiq burchakli glaukoma dunyo mamlakatlari orasida tezlik bilan rivojlanib va yosharib borayotgan kasalliklar qatoriga kiradi, uning erta diagnostikasi esa kasallik keltirib chiqaradigan asoratlarini bartaraf etishda muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

References:

1. Kiryu J., Park M., Kobayashi H. et.al. Ultrasound biomicroscopy of the anterior Segment of the eyes of Infants// J.Pediatr 1998. P.320-322.
2. Twelker J.D.1., Mitchell G.L., Messer D.H. et al. Children's Ocular Components and Age, Gender, and Ethnicity// 2009. P.918-35
3. Одилова, Г. Р., & Икромова, С. Б. (2021). Клинико-морфологические изменение роговицы при сахарном диабете. обзор литературы. Academic research in educational sciences, 2(6), 757-762.
4. Одилова, Г. Р., & Бобоева, Р. Р. (2019). Патология глаз при хроническом вирусном гепатите. Биология и интегративная медицина, (3 (31)), 59-66.
5. Одилова, Г. Р., & Файзуллаев, Ф. С. (2024). Значение Ультробиомикроскопии При Диагностике Открытоугольной Глаукомы В Ранних Стадиях. *International Journal Of Science And Technology*, 1(13), 65-72.